

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi
XULQI OG'ISHGAN BOLALAR BILAN ISHLASHNING
PSIXOLOGIK USULLARI

Shodiyeva Nilufar Shokir qizi

Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumani 25-IDUM psixologи

Annotatsiya. Ma'lumki, inson va uning xulq -atvori, jamiyatdagi o'rni har doim qator fanlar uchun qiziq hodisa sanalib kelgan. Qolaversa, har bir davlat va jamiyatning istiqboli, buguni hamda kelajagi o'sib kelayotgan yosh avlodlarning intellektual darajasi bilan belgilanishi tabiiydir. Biroq, bugungi kunda, inson xulq -atvoriga salbiy ta'sir etuvchi, uni jamiyat normalaridan uzoqlashtiruvchi shunday omillar mavjudki, ularni erta bartaraf qilmasdan turib, barkamol yosh avlod haqida gapirish ehtimoldan holi sanaladi. Xulqi og'ishganlik keng ma'noda, fanlararo tadqiqotlarning predmeti sanalib, har bir fanda mazkur muammoni o'rganishda o'ziga xos ilmiy yondashuvlar mavjud.

Kalit so'zlar: xulqi og'ishganlik, shaxs, psixologiya, voyaga yetmagan yoshlar, deviant xulq, addektiv xulq, bezorilik, o'g'irlik, tajovuzkorlik, ijtimoiy faollik.

KIRISH

Zamonaviy psixologiyada, xulqi og'ishganlik tushunchasi "deviant xulq" fenomeni bilan tavsiflanib, u o'z mazmunida "o'z joniga qasd qilish", "giyohvandlik", "boshqalarga nisbatan tajovuzkorlik", "tobe xulq", "jinoyatchilik" kabi og'ishgan xulq kabilarni ham qamrab oladi deb ta'riflaydi A.T. Akajanova. Hozirda fanda xulqi og'ishganlikning paydo bo'lish sabablarini tushuntiruvchi bir qancha ilmiy yondashuvlar, ilmiy konsepsyailar va tamoyillar mavjud. Ana shu ilmiy yondashuvlar va konsepsiyalarni tizimli o'rganish shuningdek, mahalliy psixologiyada mazkur masalada amalga oshirilgan ilmiy ishlar va manbalarni yangicha mazmunga olib chiqish kabilar o'ta muhim vazifalardan biri sanaladi. Shu bois ham, mazkur masalaga oid har qanday ilmiy chora-tadbirlar, o'ta dolzarb ahamiyatga ega ishlar turkumidan biri hisoblanadi.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Tadqiqotchi N.Smelzer xulqi og‘ishganlik masalasida shunday deydi: “xulqi og‘ishganlik – bu jamiyatda o‘rnatilgan me’yorlar va qoidalarga mos kelmaydigan harakatlar deb tushunish lozim”. Boshqa bir tadqiqotchi Robert Mertonning so‘zlariga ko‘ra esa, “deviant xulq-atvor” kelib chiqishining asosiy sabablaridan biri bu, jamiyat tomonidan ilgari surilgan maqsadlar va ularga erishish vositalari o‘rtasidagi nomuvofiqlikdir, boshqacha qilib aytganda, odamlar “anomiya” holatiga turli yo‘llar bilan moslashadilar: konformizm bilan yoki xulq-atvordagi turli xil og‘ishlar bilan. A.V.Xomich o‘z izlanishlarida xulqi og‘ishganlikni “qamoq yoki boshqa jazoga olib keladigan me’yordan chetga chiqish” harakati deb ta’riflaydi. Xulqi og‘ishganlikka yaqqol misol bu – giyohvandlik vositalaridan foydalanishdir. Ya’ni yoshlarning giyohvand moddalarga va psixotrop dorilarga psixologik qaramligi yoki unga tibbiy giyohvandlik, jismoniy qaramlik va hokazo Deviant xulqli yoshlar va tarbiyasi qiyin bolalar muammosiga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, mazkur tushunchalar 1920-1930-yillarda mutaxassislar e’tiboriga tusha boshladи. Dastlab, u fan sohasida emas, balki kundalik hayotiy vaziyatlarda ishlatilgan. Biroq, ushbu muammo bir oz vaqt unutilib, 1950-1960-yillarning boshlarida yana soha mutaxassislari e’tiborini torta boshlagan. Bu borada birinchi bo‘lib rus psixologi P.P.Blonskiy tadqiqot olib borgan. Muallif o‘z tadqiqotida deviant xulqli voyaga yetmagan bolalarni alohida tadqiqot obyekti sifatida o‘rganib chiqqan. Xuddi shunday izlanishlarni mamlakatimiz psixolog olimlari ijodida ham uchratish mumkin.

Voyaga yetmagan yoshlar orasida xulqi og‘ishganlik masalalari hamda, deviant xulqli o‘smirlar muammosi O‘zbekistonpsixolog va pedagoglari ishlarida ham o‘ziga xos tadqiq etilgan. Misol uchun, B.Umarov, G.Abduqahhorova, G.To‘laganova, N.Kamilova, N.Dolimova, U.Qodirov, G.Abduqahharova, I.Rahimova, L.Nigmatullina, B.Shukurov, F.Rajabova kabi psixolog olimlar, xulqi og‘ishganlikning turlarini turli yoshdagi obyektlarda o‘rganishga muvaffaq bo‘lishgan. Mazkur mualliflar guruhining xulosalariga ko‘ra, voyaga yetmagan yoshlar orasida, xulqi og‘ishganlik paydo bo‘lishini oldini olish asosiy usullari sifatida sport bilan shug‘ullanish, bo‘sh vaqtdan unumli foydalanish, ularda

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

axborotlar bilan ishslash ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘z ustida mustaqil ishslash ko‘nimasi kuchaytirishg, maktabga va o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasi oshirish, o‘quv mashg‘ulotlariga bo‘lgan kognitiv faollikka undash, deviant xulqli o‘smirlarni jamoaviy faoliyatga faol aralashtirish orqali, uni bartaraf etish mumkinligini ta’kidlab o‘tadilar.

Voyaga yetmaganlar orasida namoyon bo‘luvchi deviant xatti-harakatlarining asosiy sabablaridan biri bu, oiladagi muhitdir. Bizningcha, oila inson erta ijtimoiylashishning eng muhim institutlaridan biri hisoblanadi. Bolalar juda muhim bo‘lgan asosiy qadriyatlarni, me’yorlarni, xatti-harakatlarning hamda stereotiplarini oiladan o‘rganadi. Va bu orqali ularning emotsiyonal sohasi rivojlana boradi. Agar ushbu masalada qator tadqiqotchilarining tushunchalariga murojaat qiladigan bo‘lsak, xulqi og‘ishganlik asosan o‘smir yoshdagi bolalarga xos odatiy xatti-harakatlardir. Chunki, yoshlar bu harakatlari orqali o‘zlarini ota-onalari, o‘qituvchilari va tengqurlariga ma’qul ko‘radilar. Ya’ni o‘zini ko‘z-ko‘z qilish, o‘zlaricha ish tutish, kattalarni tinglamaslik, yomon insonlarga taqlid qilish, chekish, o‘g‘irlik qilish va hokazo. Bunday xulqi og‘ishgan xatti-harakatlarga e’tibor bermaslik, o‘z navbatida o‘smirlarni noto‘g‘ri yo‘lga olib boradi, ularni jinoyat sodir etishga undaydi shuningdek, ularning ma’naviyatini buzadi va oxir-oqibat ular jamiyatda yoqimsiz, va nafratli insonlarga aylanadi. Voyaga yetmagan yoshlarda ko‘p narsalarga qiziqish ortadi yoki biror bir narsaga tez moslashadi, ularning xarakteri boshqa yoshdagi shaxslarga nisbatan boshqacha bo‘ladi, ular o‘zlarining hayot yo‘llari haqida o‘ylashga harakat qiladilar, o‘rganishning mazmuni va maqsadini tushunadilar, jamoada o‘z o‘rnini bilishni xohlaydilar. S.A.Belichevaning yozishicha, voyaga yetmagan yoshlarning deviant xatti-harakatlarga berilib ketishining asosiy sababi: bilim darajasining pastligi, madaniyatning yetarli emasligi, eng muhimi, qiziqishning cheklanganligi, ijtimoiy foydali mehnatga intilmasligidir.

Deviant xulq-atvor ko‘pincha o‘smir yoshlar orasida tez-tez uchraydi. Chunki, o‘smirlik eng og‘ir davr bo‘lib, har xil noodatiy sodir bo‘ladi va bu davr do‘stlik me’yorlarini o‘rganish uchun ham, muvaffaqiyatli davr hisoblanadi.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

O'smirlik yoshiga xos xususiyatlar – bu mustaqillikka intilish boshqalarga bo'y sunmaslik. Shuning uchun, ular o'z kuchini va shaxsining ma'nosini tushunishga intiladilar. Bunday holatni ya'ni, tushunish imkoniyatlarini maktab ta'limi va mehnat jarayonidagi ishtirokidan ko'rish mumkin. Buning sababi shundaki, deviant xulq-atvorga ega bo'lgan bolalar o'zlarining tipik xususiyatlari tufayli, hayotda qiyinchiliklarga duch kelishadi va ularning aqliy imkoniyati, to'siq bo'layotgan muammoni bartaraf etish yo'lini topa olmaydi. Bundan tashqari, deviant xulq-atvorga ega bo'lgan bolalar, o'zini hech kimga kerak emasdek his qilishga o'rganib qoladi, biroq aybni kattalarning zimmasiga yuklaydi, atrofdagilar bilan tez-tez nizolashib turadilar. Shu bilan birga, ularda bo'sh vaqt dan maqsadsiz foydalanish, maktab tartibini saqlamaslik, qonun-qoidalarni buzish, jinoyatga qo'l o'rish kabi harakatlar ham ba'zida uchrab turadi.

Deviant xulq - bu ijtimoiy me'yordan chetga chiqish. U jamiyatda qabul qilingan me'yorga zid bo'lgan xatti - harakatlar tizimi sifatida ta'riflanadi. Deviant xatti-harakatlar ikkita keng toifaga bo'linadi. Avvalo, bu psixologik salomatlik me'yoridan og'ishdir. Ikkinchidan, bu ba'zi ijtimoiy-madaniy me'yorlarni, ayniqsa, huquqiy normalarni buzuvchi jamiyatga zid faoliyatdir. Shuningdek, deviant xulqli yoshlar bu – “muntazam ravishda ma'muriy jazo qo'llanilishiga olib keladigan huquqbazarliklarni sodir etishi orqali, misol uchun, ataylab maktabdan, uydan qochishi yoki maxsus ta'lim muassasalarini muntazam tark etishi, shuningdek, huquqbazarlik sodir etishi mumkin bo'lman jinoyatlar belgilariga ega bo'lishidir”. V.A.Nikitina deviant xulq-atvorni guruh me'yoridan chetga chiqish, deb hisoblaydi, bu esa mazkur huquqbazarliklar uchun alohida profilaktik ishlar hamda qonuniy jazo qo'llash kabilarga olib keladi. Hozirgi kunda, ko'plab tadqiqotchilar deviant xulq-atvor va uni oldini olish muammosiga katta qiziqish e'tibor bermoqda. Xulqi og'ishganlikni ilmiy tadqiq qilish psixologiya, kriminologiya, psixopatologiya, sotsiologiya, pedagogika kabi fanlarda o'ziga xos tarzda amalga oshirilib, bundan asosiy maqsad shuki, yoshlar orasida xulqi og'ishganlikni erta profilaktika qilishdir.

Xulqi og'ishganlikni profilaktika qilish – bu ijtimoiy muhitning salbiy

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

omillarining shaxsga ta'sirini erta bartaraf etish va yoshlarda normal hayot tarzini qaror toptirishga qaratilgan psixologik, ijtimoiypsixologik, pedagogik va tibbiy chora-tadbirlar majmuidir. Deviant xulq-atvorning oldini olish choralar umumiy va maxsus turlarga bo'linadi. Umumiy profilaktik choralar – bu shaxsning ijtimoiylashuv jarayonini baqaror kechishi uchun psixologik-pedagogik, ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan, bir qator ogohlantirish tadbirlari majmuidir. Maxsus profilaktika choralar – bu aniq vazifalarni hal qilishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi bo'lib, unda giyohvandlik, huquqbuzarlik, bezorilikka moyil bolalar va ular xulqini profilaktikasini amalga oshirishga doir psixologik targ'ibot -tashviqot ishlari turkumidandir.Tadqiqotchi V.D.Komarning aytishicha, voyaga yetmagan yoshlar orasida xulqi og'ishganlikni oldini olish jarayoni, turli ijtimoiy institutlar majmuasi orqali amalga oshiriladi. Profilaktik tadbirlar bilan qator ijtimoiy muassasalar, masalan, oila, mакtabdan tashqari dam olish maskanlari (sport seksiyalari, to'garaklar va boshqalar) shug'ullanishlari mumkin.Bunday profilaktik ishlardan asosiy maqsad shuki, voyaga yetmagan yoshlarni jamiyat hayotiga jalb etish, ularning o'z ehtiyojlarini qondirish uchun, yangi sharoitlar yaratish shuningdek, qiyin hayotiy vaziyatlarda ularga professional yordam ko'rsatishdir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, xulqi og'ishganlikni erta bartaraf etish ishlari o'ziga xos murakkab vazifa sanalib, ushbu muammo masalaga boshqacha, yangicha ilmiy yondashuvni talab etadi. Agarda ta'lim tarbiyada bo'shliq yuzaga kelsa, u holda yoshlar o'z vaqtlaridan unumli foydalanish, yuksak maqsadlar sari intilish, kognitiv faol bo'lish, jamiyat hayotiga ijtimoiy faol bo'lish kabi sifatlardani yiroqlashadilar. Qolayevrsa, yoshlar guruhi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda do'stlik, hamrohlik, mehr-oqibatlilik, hurmat va halollik kabi sifatlar o'z vaqtida shakllantirilsa, shundagina xulqi og'ishganlikning oldi olinishi hamda ularni ta'lim muhitiga faol ijtimoiylashtirish mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

1. Хомич А.В. Психология девиантного поведения: Учебное пособие. – Южнороссийский Гуманитарный Институт., - Ростов-на-Дону. – 2006 г. – 140 с.
2. Блонский П. П. Психология и педагогика. Избранные труды / П. П. Блонский. – 2-е изд., стер. — Москва : Издательство Юрайт, 2024. – 184 с
3. Беличева С. А. Характеристика современного состояния проблем девиантного поведения несовершеннолетних и пути их решения / С. А. Беличева. – М.: Закон и правопорядок, 2009. – 59 с.
4. Девиантное поведение детей и подростков. Проблемы и пути их решения. / под ред. В. А. Никитина. – М.: Центр, 2010. – 118 с.
5. – С. 86.